

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

amaliy tajribalar.....	82
D.A.Djurakulova	
Chet tili universitetlarida mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi psixologik va pedagogik omillar.....	87
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarni intellektual faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy sherikchilikning roli.....	92
N.B.Dusimbetova, S.D.Qayimova	
Jurnalistika ta'limida transmedia ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	95
M.Sh.Dehqonova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tafakkurini mantiqiy masalalar yechish jarayonida rivojlantirish.....	99
B.Q.Qurbonova	
Oliy ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari.....	102
M.I.Madraximova	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik amaliyot jarayonida rivojlantirish.....	106
Z.Q.Abdullayeva	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirish texnologiyasi.....	110
O.A.Васильченко	
Дирижерский жест как средство музыкального выражения в хоровом исполнении.....	114
S.R.Shermatova	
Oliy ta'lim jarayonida klasterli yondashuvdan foydalangan holda induktiv va deduktiv tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish metodlari.....	120
M.Nasritdinova	
Artpedagogik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratilgan diagnostik usulni amaliyotga tatbiq etish.....	124
D.Sh.Jo'raboyeva	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.....	129
U.I.Obidjanov	
Tabiiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi: tajriba-sinov natijalari.....	134
J.M.Otajonov	
Рефлексия как философский феномен связи личности и общества.....	139
M.A.Nurmatova	
Universal metakompetentlikning pedagogik asoslari va rivojlantirish imkoniyatlari.....	146
S.B.Tangirqulov	
Maxsus ta'lim tizimida zamonaviy o'zbek musiqiy tafakkur asosida nogironligi bo'lgan o'quvchilarning musiqa madaniyatini rivojlantirish istiqbollari.....	151
Z.N.Asqarova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning akt kompetensiyasini rivojlantirish.....	156
N.Sh.Rustamova	
Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich).....	160



UOK: 811.161.1'243:378.147:159.9.072

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA OG'ZAKI BO'LMAGAN KOMMUNIKATIV KOMPETENCIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI (BOSHLANG'ICH BOSQICH)**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ (НАЧАЛЬНЫЙ ЭТАП)****METHODOLOGY OF DEVELOPING NONVERBAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE (ELEMENTARY LEVEL)****Rustamova Nigina Shuxratovna** 

Buxoro viloyati, Buxoro shahri, 29-Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi

Аннотация

Ushbu maqolada rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetençiyani shakllantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Boshlang'ich bosqich talabalari uchun til o'rganish jarayonida mimika, jest, tana tili, intonatsiya va vizual vositalarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, chet tilini o'qitishda noverbal muloqotning innovatsion metodlari, interfaol texnologiyalar hamda madaniyatlararo farqlarni hisobga olish muhimligi asoslab beriladi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы формирования невербальной коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному с научно-теоретической и практической точек зрения. Для студентов начального этапа изучения языка раскрывается значение мимики, жестов, языка тела, интонации и визуальных средств. Кроме того, обосновывается необходимость применения инновационных методов невербальной коммуникации, интерактивных технологий, а также учета межкультурных различий в процессе преподавания иностранного языка.

Abstract

This article analyzes the issues of developing non-verbal communicative competence in teaching Russian as a foreign language from both theoretical and practical perspectives. For beginner-level students, the importance of facial expressions, gestures, body language, intonation, and visual aids in the language learning process is emphasized. Furthermore, the article substantiates the significance of using innovative methods of non-verbal communication, interactive technologies, and considering intercultural differences in the process of teaching a foreign language.

Kalit so'zlar: rus tili, chet tili sifatida, og'zaki bo'lmagan kommunikatsiya, noverbal kompetençiya, jest, mimika, intonatsiya, tana tili, boshlang'ich bosqich, kommunikativ kompetençiya, madaniyatlararo muloqot, o'qitish metodikasi.

Ключевые слова: русский язык, как иностранный, невербальная коммуникация, невербальная компетенция, жест, мимика, интонация, язык тела, начальный этап, коммуникативная компетенция, межкультурная коммуникация, методика преподавания.

Key words: Russian as a foreign language, non-verbal communication, non-verbal competence, gesture, facial expression, intonation, body language, beginner level, communicative competence, intercultural communication, teaching methodology.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida chet tillarini samarali o'qitish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kengroq kommunikativ kompetençiyani shakllantirishni ham taqozo etmoqda. Ayniqsa, rus tilini chet tili sifatida o'rgatishda talabalarning faqat og'zaki nutqni emas, balki og'zaki bo'lmagan kommunikativ vositalarni ham to'g'ri qo'llash malakasiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki til o'rganishda muloqotning katta qismi — taxminan 60–70 foizi — noverbal belgilar orqali ifodalanadi. Shunday ekan, boshlang'ich bosqichdan boshlab mimika, jest, tana harakati, ovoz ohangi, makoniy masofa kabi unsurlarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Rus tilini chet tili sifatida o'qitish (PKI) metodikasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda so'nggi yillarda noverbal kommunikatsiya masalalari alohida yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda.

Masalan, L.S. Vygotskiy, A.A. Leontyev va D.B. Elkoninlarning psixologik-pedagogik tadqiqotlarida kommunikatsiya jarayonida mimika va jestlarning shaxs rivojiga ta'siri chuqur tahlil etilgan. Tilshunoslik va lingvodidaktika sohasida E.I. Passov, I.L. Bim hamda V.G. Kostomarovning ishlari og'zaki va og'zaki bo'lmagan nutq vositalarini o'qitish jarayoniga integratsiya qilishning nazariy asoslarini beradi.

Xalqaro miqyosda esa, D. Haimesning "kommunikativ kompetentsiya" nazariyasi, A. Mehrabian va R. Bedvistellning nonverbal kommunikatsiya bo'yicha izlanishlari til o'rgatishda tana tili, intonatsiya, vizual signallarni o'quv jarayoniga qo'shish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, G. Hall va E. Hallning madaniyatlararo muloqot nazariyalari rus tilini chet tili sifatida o'qitishda milliy-madaniy kontekstni hisobga olishning muhimligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nonverbal kommunikatsiya nafaqat yordamchi vosita, balki to'laqonli kommunikativ kompetentsiyaning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Shu bois boshlang'ich bosqichda o'qituvchining o'quvchilarda og'zaki bo'lmagan muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot metodologik jihatdan kommunikativ yondashuv, lingvomadaniy yondashuv va interfaol o'qitish metodlariga tayangan bo'lib, kommunikativ yondashuv rus tilini chet tili sifatida o'qitishda asosiy tamoyil sifatida qo'llanilib, o'quvchilarda nafaqat grammatik va leksik bilimlarni, balki real muloqot jarayonida og'zaki va nonverbal belgilarni uyg'unlashtirishni ta'minlagan, lingvomadaniy yondashuv esa madaniyatlararo muloqot nazariyasi asosida shakllantirilib, jest va mimika kabi nonverbal vositalarning milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olishga xizmat qilgan, interfaol metodlar dramatizatsiya, rol o'yinlari, vizual texnologiyalar, videomateriallar va multimodal dars usullari orqali o'quvchilarning nonverbal muloqot kompetentsiyasini faol shakllantirishga imkon bergan, psixolingvistik asoslar esa til o'rganish jarayonida ong, xotira va idrok mexanizmlarining faoliyatini inobatga olib, nonverbal belgilarni semantik qabul qilish va qo'llashni kuchaytirgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, kuzatuv, eksperiment hamda interfaol mashg'ulotlar natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalaniladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish boshlang'ich bosqichda til o'rganuvchilarning tilni idrok etish, uni amalda qo'llash va madaniyatlararo muloqotda erkin ishtirok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonida mimika, jest, tana tili va intonatsiya kabi vositalarning o'rgatilishi o'quvchilarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki psixologik ishonchini ham oshiradi. Bu esa ularning kommunikativ faolligini rag'batlantiradi.

Eksperimental mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilar tomonidan katta qiziqish va ijobiy kayfiyat bilan qabul qilindi. Bu jarayonda ta'limning an'anaviy shakllaridan farqli ravishda, talabalar faol ishtirokchi sifatida muloqot maydoniga jalb qilindi. Masalan, rol o'yinlari, dramatizatsiya mashqlari va sahnalashtirish elementlari orqali o'quvchilar nonverbal belgilarni tabiiy ravishda qo'llashni o'rganibgina qolmay, balki ularning ma'nosini chuqurroq anglash va turli vaziyatlarda to'g'ri ishlatish ko'nikmasini ham egalladilar. Bu esa nutqiy vaziyatlarni yanada boyitdi va muloqot jarayonini tabiiylashtirdi.

Shuningdek, interfaol metodlar yordamida o'quvchilarda nutqiy vaziyatni simulyatsiya qilish imkoniyati yuzaga keldi. Masalan, sahna mashqlari vaqtida ular turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarni o'zlashtirib, og'zaki bo'lmagan belgilar yordamida hissiyotlarni ifodalashni mashq qildilar. Natijada, ularning til vositalaridan foydalanishdagi erkinligi ortdi, o'zini ifoda etishdagi ishonchi mustahkamlandi va kommunikativ kompetentsiya yanada keng qamrovli tus oldi.

Bundan tashqari, video va multimediya materiallaridan foydalanish ta'lim jarayoniga yangi impuls berdi. Ekran orqali kuzatilgan jestlar, mimikalar, tana harakatlari va intonatsiyalar o'quvchilar ongida kuchli vizual assotsiatsiyalar hosil qildi. Bu esa ularning nafaqat nutqiy idrokini, balki eshitish va ko'rish orqali qabul qilish mexanizmlarini ham faollashtirdi. Multimodal yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning tilni eslab qolish darajasi yuqori bo'lgani kuzatildi.

Eksperimental mashg'ulotlarning umumiy natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar o'quvchilarda motivatsiyani kuchaytiradi, nonverbal kommunikatsiya vositalaridan ongli va samarali

PEDAGOGIKA

foydalanishni o'rgatadi, shuningdek, rus tilini chet tili sifatida o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi. Shu bois, ushbu metodlarni boshlang'ich bosqich darslarida tizimli qo'llash samarador natijalarga olib kelishi aniqlandi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, ko'plab talabalarda noverbal belgilarni, ya'ni jest, mimika, tana harakati va intonatsiya kabi vositalarni qo'llash bo'yicha tabiiy qobiliyat mavjud bo'lsa-da, ushbu qobiliyatni maxsus metodika va tizimli yondashuv asosida rivojlantirish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, faqatgina grammatik va leksik bilimlarni o'zlashtirish yetarli emas, balki muloqotning tabiiy jarayonida noverbal elementlarni ongli ravishda ishlatishga ham e'tibor qaratish lozim.

Shuningdek, milliy-madaniy xususiyatlar noverbal kommunikatsiyada alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, ayrim jest va mimikalari rus madaniyatida ijobiy yoki neytral ma'no anglatgan bo'lsa, boshqa xalqlarda ular mutlaqo boshqacha talqin qilinishi, hatto salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Shu bois, noverbal kommunikatsiyani o'rgatishda lingvomadaniy yondashuvni qo'llash, ya'ni har bir madaniyatning o'ziga xos muloqot belgilari va odatlarini hisobga olish zarurdir.

Bundan tashqari, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarga noverbal belgilarni to'g'ri qo'llashni o'rgatish nafaqat ularning nutqiy faolligini oshiradi, balki ular uchun madaniyatlararo muloqot sharoitida erkin va moslashuvchan bo'lish imkoniyatini ham yaratadi. Bu jarayon esa, o'z navbatida, til o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi va kommunikativ kompetensiyani kompleks shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, boshlang'ich bosqichda noverbal kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirishni, madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olishni va o'qituvchining o'z shaxsiy noverbal muloqotidan namunaviy tarzda foydalanishini talab etadi. Shu tariqa, metodik yondashuvni to'g'ri tanlash va uni bosqichma-bosqich qo'llash talabalarda real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlik darajasini oshiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, agar o'qituvchi dars jarayonida og'zaki bo'lmagan muloqot vositalaridan — jest, mimika, tana harakatlari, intonatsiya va boshqa noverbal belgilar — samarali va maqsadli foydalansa, o'quvchilar ushbu ko'nikmalarni tezroq va sifatliroq o'zlashtiradilar. Bu esa o'z navbatida metodik jarayonning samaradorligini oshiribgina qolmay, balki o'quvchilarni real kommunikativ vaziyatlarda erkin muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi. O'quvchi o'rgangan noverbal belgilar yordamida nafaqat o'z fikrini aniq yetkazadi, balki suhbatdoshining xatti-harakatlarini ham to'g'ri talqin qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqot natijalari tasdiqlashicha, boshlang'ich bosqichda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi. Avvalo, bu jarayon o'quvchilarda nutqiy faollikni sezilarli darajada oshiradi, chunki ular dars davomida muloqotga faolroq jalb qilinadi va o'zini erkin ifoda etishga intiladi. Ikkinchidan, kommunikativ vaziyatlarda o'zini erkin tutish qobiliyati rivojlanadi, bu esa ularga nafaqat o'quv jarayonida, balki kundalik hayotiy vaziyatlarda ham foyda keltiradi. Uchinchidan, madaniyatlararo muloqotda to'g'ri idrok va moslashuvchanlik shakllanadi, ya'ni o'quvchilar turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish jarayonida tushunmovchiliklardan qochish va o'z xatti-harakatlarini moslashtirishni o'rganadilar.

Bundan tashqari, noverbal kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi rus tilini chet tili sifatida o'rganish jarayonida motivatsiyani kuchaytiradi. Til o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarni yodlash bilan chegaralanib qolmasdan, balki real muloqot holatlariga yaqinlashtirilganda, talabalarda tilni chuqurroq o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi. O'z navbatida, bu motivatsiya ularning mustaqil ta'lim olish faoliyatini ham qo'llab-quvvatlaydi.

XULOSA

"Rus tilini chet tili sifatida o'qitishda og'zaki bo'lmagan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasi (boshlang'ich bosqich)" mavzusidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, chet tilini o'rgatishda og'zaki nutq bilan bir qatorda mimika, jest, tana harakati, ko'z qarashi, intonatsiya kabi og'zaki bo'lmagan vositalar ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular o'quvchilarda tabiiy muloqot muhitini yaratadi, nutqiy jarayonni yanada jonlantiradi va til o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, shu bilan birga, boshlang'ich bosqichda bunday vositalardan foydalanish o'quvchilarda psixologik to'siqlarni yengishda, madaniyatlararo muloqotni chuqurroq anglashda va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat

qiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, multimodal texnologiyalar va lingvomadaniy yondashuv asosida olib borilgan darslar talabalarning nutqiy faolligini oshirib, kommunikativ vaziyatlarda o'zini erkin tutish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qituvchining dars jarayonida og'zaki bo'lmagan muloqot vositalaridan samarali foydalanishi ham o'quvchilarda ijobiy ta'sir ko'rsatib, o'qitish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Артемова О.Е. Методика преподавания русского языка как иностранного. – Москва: Русский язык, 2017. –С.25.
2. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика. – Москва: Академия, 2019. –С.48.
3. Жинкин Н.И. Механизмы речи. – Москва: Наука, 2009. –С.52.
4. Сафонова В.В. Изучение иностранных языков через призму межкультурной коммуникации. – Москва: Флинта, 2018. –С.74.
5. Халеева И.И. Основы теории обучения пониманию иноязычной речи. – Москва: Высшая школа, 2016. –С.42.
6. Жуков А.Ю. Невербальные средства коммуникации в процессе преподавания иностранных языков. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2020. –С.36.
7. Crystal D.A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell, 2019. –С.29.
8. Samovar L.A., Porter R.E., McDaniel E.R. Communication Between Cultures. – Boston: Cengage Learning, 2021. –С.85.
9. Knapp M., Hall J.A., Horgan T.G. Nonverbal Communication in Human Interaction. – Boston: Cengage, 2019. –С.23.
10. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. –С.74.